



## ERISHILGAN IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA KELGUSI PROGNOZLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida joriy yilning 9 oyida erishilgan iqtisodiy natijalar, yil yakunigacha kutilayotgan ko‘rsatkichlar va 2024-yilga mo‘ljallangan makroiqtisodiy prognozlar muhokama qilindi.

Joriy yilning 9 oyida mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,8 foizga o‘sti. Jumladan, sanoat 5,7 foiz, qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz, xizmatlar 12,1 foizga oshdi.

Jahon bozorlari va logistika mahallalarida yirik korxonalar qaramay, eksport 23,5 foizga oshib, 17,7 milliard dollarni tashkil qildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarda yirik sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshirilayotgani hisobiga, 226,6 trillion so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,8 foizga ko‘paydi.

Yig‘ilishda joriy yil yakunigacha kutilayotgan ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari dunyodagi og‘ir vaziyat iqtisodiyotga salbiy ta‘sir etayotgani va noma‘lumligicha qolayotgani, shu bois, barqaror iqtisodiy o‘shishni izchil davom ettirish uchun ichki imkoniyatlarni ko‘proq ishga solish zarurligini ta‘kidladi.

Aynan shuning uchun 2023-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Buning evaziga tadbirkorlar ixtiyorida 7 trillion so‘m qo‘shimcha mablag‘ qoldi.

Shuningdek, hududlar infratuzilmasini yaxshilashga 35 trillion so‘m, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga 19 trillion so‘m yo‘natildi.

Shularning natijasida, joriy yilda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan global iqtisodiyot 3 foiz o‘shishi prognoz qilinayotgan paytda, milliy iqtisodiyotimiz kamida 5,6 foizga oshishi kutilmoqda.

Yig‘ilishda 2024-yilda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish chora-tadbirlari atroficha muhokama qilindi.

Ma‘lumki, joriy yil sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish bo‘yicha ko‘plab maqsad va vazifalar belgilandi. Hukumatga 2024-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturni mazkur strategiyadagi vazifalarni bajarish nuqtayi nazaridan puxta ishlab chiqish topshirildi.

Bunda yalpi ichki mahsulotning hozirgi o‘shish sur‘atini kelgusi yilda ham davom ettirish uchun barcha imkoniyat va zaxiralardan borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Xususan, 2024-yilda 13 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushirish, energiya ta‘minotini barqarorlashtirish, tarmoqlar samaradorligini oshirish hisobiga sanoatda 6 foiz o‘shish imkoniyati bor.

Xizmatlar sohasida 15 foiz o‘shishni ta‘minlash uchun transport, logistika, agro-xizmatlar, sug‘urta, lizing kabi yo‘nalishlardagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to‘liq ishga solish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari transport, suv xo‘jaligi, kommunal kabi sohalarda boshlangan islohotlarni faollashtirish, bunda aholi va biznesni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratish zarurligini ta‘kidladi.

O‘ZA

## YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

# 7+2 TAMOYILI YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI INNOVATSION YONDASHUV

Mamlakatimizda yoshlarning barcha toifalarini keng qo‘llab-quvvatlash, imkoniyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilganiga qariyb ikki yil bo‘lmoqda. Shu vaqt davomida yetakchilar mahalladagi yoshlarning og‘irini yengil qilish, ularga munosib turmush sharoitini yaratish barobarida yigit-qizlarimizning ishonchli hamkori, samimiy maslahatgo‘yi va eng yaqin do‘stiga aylandi.

Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yoshlar yetakchisi lavozimi bilan birga, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, bunda vertikal tizim yaratish, muammolarni bevosita mahallalarda hal etish, ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari ham belgilangan.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishning tub mohiyati hech bir yosh e‘tibordan chetda qolmasligiga qaratilgan.

Bunday dolzarb funksiyani bajarishi uchun mahalladagi yoshlar yetakchisi qanday fazilat va



ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim, ular zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?

Yoshlar yetakchisi lavozimiga ustuvor ravishda oliy ma‘lumotli, istisno tariqasida o‘rta maxsus ma‘lumotli, yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, shaxsiy fazilati, fidoyiligi, sadoqati va vatanpar-

varligi bilan tengdoshlariga namuna ko‘rsatgan holda ortidan ergashtira oladigan shaxslar tanlab, saralash asosida ishga qabul qilindi. Shuningdek, yoshlar yetakchisiga qo‘yiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy, professional va shaxsiy talablarga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Davomi 4-5-betlarda

## “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

# IJTIMOY DAVLAT TARAQQIYOTI

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. Ularning tub negizida, avvalo, inson qadri ulug‘lash, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsadlar yotadi. Ijtimoiy davlat mohiyatini har bir inson uchun tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish masalalari qamrab oladi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir!”



Ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni bir-birini tasavvur etib bo‘lmaydi. Iqtisodiyot yuksalishi kishilar hayotida yangi qarash va imkoniyat ochib beradi. Bugungi kunda jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar boshqa sohalarda ham yetakchilikni egallashga harakat qilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham bozor iqtisodiyoti poydevorlari tobora mustahkamlanib boryapti.

Barqaror iqtisodiy o‘shishning sezilarli natijalari bugungi kunda yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Buni O‘zbekiston bozor iqtisodiyoti va munosabatlarining jahon standartlariga mos ravishda rivojlanish jarayonini statistik taqqoslash orqali ko‘rish mumkin. So‘nggi yillarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanishi natijasida eksport 2022-yilda

2020-yilgiga nisbatan 1,3 barobar oshib, o‘shish sur‘ati shu davrdagi 13,5 foiz zarardan 15,9 foiz foydagacha ko‘tarildi. Koronavirus pandemiyasidan keyingi bunday o‘shishni mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlari qo‘lga kiritilgan yutuqlardan biri sifatida baholash o‘rinlidir.

Yurtimizda o‘tgan yillarda aholi real daromadi muttasil o‘sti. 2012-2016-yil-

larda bu ko‘rsatkich 1,9 marta o‘sgan bo‘lsa, 2017-2022-yillarda 2,2 barobar oshgan. Aholi jon boshiga real daromad bu davrda 6,7 million so‘mdan 16 million so‘mga yoki 2,4 barobar ko‘paygan. Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmat hajmi esa mazkur vaqt davomida 8,1 milliondan 10,3 million so‘mga yetgan.

Davomi 3-betda

## BIZ VA DUNYO

# O‘zbekiston va Xitoy: O‘ZARO ISHONCHNING MUSTAHKAMLIGI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

O‘zbekiston Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi va “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumi tadbirlarida ishtiroki Xitoy OAVlari diqqat markazida bo‘ldi.



Xitoyning yetakchi ommaviy axborot vositalari — “Sinxua” axborot agentligi, “Jenmin jibao” va “China Daily” gazetlari, CGTN telekanali, “Kitay”, “Lookwe” va “Psearcher” jurnallari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 17-18-oktabr kunlari Pekinda bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumida ishtiroki va nutqini keng yoritdi. Jumladan, “Sinxua” axborot agentligining qayd etishicha, Prezident

Shavkat Mirziyoyevning “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro hamkorlik bo‘yicha uchinchi yuqori darajadagi forumida ishtirok etish uchun Xitoyga tashrifi doirasida XRR Raisi Si Szinpin bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Davomi 2-betda

## XALQARO FORUM



# SENTOB – JAHON TURIZM QISHLOQLARI RO‘YXATIDA

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida “Eng yaxshi turizm qishloqlari” nominatsiyasi bo‘yicha taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu tanlov UNWTO tomonidan har yili iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanayotgan, shuningdek, mahalliy qadriyatlar va an‘analarni saqlab, uni targ‘ib qilib kelayotgan eng faol qishloqlarni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

Tanlovda bu yil O‘zbekiston qishloqlari ham ishtirok etdi. Bular — Samarqand viloyatidagi Konigil, Navoiy viloyatidagi Sentob, Surxondaryo viloyatidagi

Sangardak, Jizzax viloyatidagi Uxum va Farg‘ona viloyatidagi Avval turizm qishloqlari.

Davomi 3-betda

## BIR MAKON, BIR YO‘L



# “YASHIL” KELAJAKNING YANGI IMKONIYATLARI

2

## MULOHAZA



# FUTBOL ZAVQI ATROFIDA BIRLASHISH TASHABBUSI

2



## BIZ VA DUNYO

# O'zbekiston va Xitoy: O'ZARO ISHONCHNING MUSTAHKAMLIGI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

"Muzokaralar chog'ida ikki davlatning rivojlanish maqsadlari o'xshashligi, Xitoy O'zbekiston bilan birgalikda milliy modernizatsiya jarayonida o'zaro o'rganish va investitsiyalar hajmini oshirish, xitoy-o'zbek hamjamiyatini birgalikda barpo etishga tayyor ekanini ta'kidlandi. Tomonlar savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik bo'yicha o'rta va uzoq muddatli rejanı samarali amalga oshirishi, muhim yo'nalishlarda o'zaro munosabatlarnı yanada rivojlantirish va Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasi qurilishini tezroq boshlash uchun shart-sharoit yaratish kerakligini qayd etdilar", deb yozdi "Sinxua".

Nufuzli "Jenmin jibao" gazetasi O'zbekiston Prezidenti "Bir makon, bir yo'l" forumi doirasida Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi raisi Van Xunin bilan uchrashuv o'tkazgani haqidagi materialni mushtariylar e'tiboriga taqdim qilgan.

"Ikki davlat taraqqiyoti o'xshash qarashlarga ega va modernizatsiya yo'lida yaxshi hamkor, — deb yozdi gazeta. — Xitoy O'zbekiston bilan ikki davlat rahbarlari erishgan muhim konsensusni amalga oshirish, o'zaro qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik va ishonchni saqlash, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida yuqori sifati hamkorlikni rivojlantirishga tayyor".

Ushbu mamlakatning ommabop "China Daily" gazetasi ham O'zbekiston Prezidentining Pekinga amaliy tashrif tafsilotlarini keng yoritdi. Davlatimiz rahbari tashrifga bag'ishlab bosilgan maqolada Xitoy energetika va innovatsiyalar kabi sohalarda hamkorlikni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlashi,



O'zbekistondan ko'proq sifati mahsulotlar import qilishga tayyor ekanini qayd etilgan.

Nashrda ta'kidlanishicha, tobora ko'proq o'zbek yoshlari Xitoyda ta'lim olishi mumkin, Xitoy esa o'zbekistonlik talabalar uchun ko'proq stipendiya kvotalari ajratishga tayyor.

"O'zbekiston kambag'allikka qarshi kurashda Xitoy tajribasidan foydalanishga, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida turli sohalarda hamkorlik va almashinuvlarni chuqurlashtirishga hamda "Yashil ipak yo'li"ni birgalikda barpo etishga ko'maklashadi", deyiladi maqolada.

"Beijing Review" jurnalidagi maqolada ta'kidlanganidek, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy-diplomatik hamkorlik, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalar jadal rivojlanmoqda. Qayd etilishicha, O'zbekiston va Xitoy bir-birini ishonchli hamkorlar deb biladi va ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida har tomon-

**"AYNI PAYTDA O'ZBEKISTON VA XITOI O'RTASIDA KO'PTARMOQLI IQTISODIY HAMKORLIK YO'LGA QO'YILGAN. O'ZARO TOVAR AYIRBOSHLASH HAJMI 8,9 MILLIARD DOLLARNI TASHKIL ETDI. XITOI UZOQ YILLAR DAVOMIDA O'ZBEKISTONNING ENG YIRIK SAVDO SHERIKLARIDAN BIRI BO'LIB, MAMLAKAT TASHQI SAVDOSINING 18 FOIZ ULUSHI UNING HISSASIGA TO'G'RI KELADI", DEYILADI MAQOLADA.**

lama strategik sheriklikni mustahkamlash, o'zaro manfaatli aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishdan manfaatdor.

"Ayni paytda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida ko'p tarmoqli iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 8,9 milliard dollarni tashkil etdi. Xitoy uzoq yillar davomida O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biri bo'lib, mamlakat tashqi savdosining 18 foiz ulushi uning hissasiga to'g'ri keladi", deyiladi maqolada.

"Kitay" jurnalida ushbu mavzuga bag'ishlab chop etilgan maqolada ta'kidlanishicha, strategik sheriklikning yuksak darajasi Xitoyning "Bir makon,

bir yo'l" tashabbusini ilgari surish bo'yicha ikki davlatning faol hamkorligidan dalolat beradi. "O'zbekiston birinchilardan bo'lib xalqaro transport aloqalarini mustahkamlash, keng savdo, sarmoyaviy va gumanitar almashinuvni rivojlantirishga qaratilgan ushbu megaloyihani qo'llab-quvvatlatdi", deya qayd etadi jurnal.

"Lookwe" axborot-tahliliy jurnali bugungi kunda O'zbekistonning asosiy strategik hamkorlaridan biri Xitoy ekanini ma'lum qilgan. "Xitoy bilan ko'p qirrali aloqalar O'zbekistondagi islohotlarni olg'a surish,

iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirishga muhim hissa qo'shmoqda. XXR bilan xalqaro maydonda siyosiy muloqot va o'zaro hamkorlik respublika tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi", deya qayd etadi bosma nashr.

Maqola xulosasida "O'zbekiston va Xitoy o'zaro siyosiy ishonchni muttasil mustahkamlab, tenglik, o'zaro hurmat va manfaatlarni munosabat olgan holda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirmoqda", deyiladi.

**"DUNYO" AA**  
Pekin

## BIR MAKON, BIR YO'L

## "YASHIL" KELAJAKNING YANGI IMKONIYATLARI

**"Bir makon, bir yo'l" g'oyasi qisqa tarixiy davrda umumiy taraqqiyot va ravnaqqa erishish yo'lidagi hamkorlik uchun muhim, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi. XXR Raisining "Yashil ipak yo'li" tashabbusi dastlab 2016-yilda O'zbekistonda bildirilgani chuqur ramziy ma'noga ega.**



**Zilola QOSIMOVA,**  
siyosiy fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

Prezidentimizning "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumidagi nutqida va XXR Raisi Si Szipin bilan o'tkazgan muzokaralar chog'ida bildirgan fikrlari so'nggi o'n yil mobaynida mazkur tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlarga berilgan yuksak baho sifatida qaralmoqda.

Aslida ham bu g'oya ilk bor 2013-yilda XXR Raisining Markaziy Osiyoga qilgan rasmiy safarlari davomida ilgari surilgan. "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumi ilk bor 2017-yilda o'tkazilgan. Xitoy ilgari surgan mazkur tashabbus ikki yo'nalish — quruqlik va dengiz yo'llarini rivojlantirish va o'zaro bog'lash orqali davlatlararo hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan. Ayni kunga kelib, u Osiyo, Yevropa va Afrikadagi 100 dan ortiq mamlakatni qamrab olgan global iqtisodiy makonga aylangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu dastur umumiy hisobda 3,7 trilyon dollar qiymatdagi 2

ming 600 dan ziyod loyihani o'z ichiga oladi.

O'zbekiston birinchilardan bo'lib ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlatdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 va 2019-yillarda Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashriflari doirasida "Bir makon, bir yo'l"ning birinchi va ikkinchi xalqaro forumlarida ishtirok etdi, bu platforma har bir davlatning o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanish, iqtisodiy jihatdan bir-birini to'ldirish, savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochishini alohida ta'kidlagan edi.

Shu jihatdan olganda, ikkinchi forum doirasidagi uchrashuv chog'ida Xitoy rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyevni "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining asoschilaridan biri deb atab, O'zbekistonning forumdagi ishtirokiga e'tibori esa ikki davlat o'rtasidagi munosa-

batlarning yuqori darajada ekanini ko'rsatadi, degan fikrlari yodga keladi va bunday yuksak e'tirof yurtodoshlarimizda faxr uyg'otadi.

Bu mamlakatlarimizning ko'p qirrali va keng ko'lami iqtisodiy aloqalari misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Keyingi yillarda O'zbekistonda Xitoy investitsiyalari hajmi besh barobar, qo'shma korxonalar soni uch barobar ko'paydi. Joriy yil boshidan buyon o'zaro savdo hajmi 36 foizga oshdi. Yil yakunigacha ushbu ko'rsatkich 10 milliard dollardan oshishi, tovar ayirboshlash hajmi yaqin besh yilda 20 milliard dollarga yetishi kutilyapti.

Davlatimiz rahbari 18-oktabr kuni "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumining ochilish marosimida hamda "Inson va tabiat uyg'unligi yo'lida "Yashil ipak yo'li"ni birgalikda barpo etish" mavzusidagi yalpi yig'ilishda ishtirok etdi. Bu Xitoyning har tomonlama strategik sherigi sifatida O'zbekiston birinchilardan bo'lib mazkur tashabbusini qo'llab-quvvatlagan va uning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat'iy tarafdori ekanini namoyon etdi.



MULOHAZA

## FUTBOL ZAVQI ATROFIDA BIRLASHISH TASHABBUSI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni Bishkek shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladi.



**Damir ISMAGILOV,**  
O'zbekiston davlat jismoniy  
tarbiya va  
sport universiteti futbol  
fakulteti dekani,  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD),  
dotsent

Biz, yoshlar murabbiylari uchun muhim jihat shundaki, davlatimiz rahbari dunyoviy va mintaqaviy nutqlarida har doim yoshlar taqdiri va hayotiga keng jamoatchilik diqqat-e'tiborini qaratib keladi.

MDH sammitida ham shunday bo'ldi. Yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga egaligini ta'kidlagan davlatimiz rahbari: "Biz yangi qo'shma loyihamiz doirasida kelgusi yilda "Hamdo'stlikning yoshlar poytaxti" deb e'lon qilingan Toshkent shahrida tadbirlarga boy dasturni tayyorlayapmiz. Shuningdek, "Hamdo'stlik kubogi" futbol turnirini qayta tiklash va yoshlarimiz jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilamiz", deya navbatdagi tashabbusni ilgari surdi.

Bu taklif MDH davlat rahbarlari, qolaversa, tashkilot makonida yashayotgan aholi, yoshlar va futbol muxlislari tomonidan iliq kutib olinganiga shubha yo'q. Boisi, bir-birining sarhadlari osha tutashgan davlatlarimiz xalqi azaldan sportga oshno bo'lib kelgan. Jismoniy barkamollik qadriyat sifatida ulug'langan.

Bugun ham shunday. Ayniqsa, tahlikaga to'lib borayotgan dunyoviy munosabatlarning aziyatli sharoitida hamjihatlik va birdamlik ruhiga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bunday vaziyatda insonlarni hamma uchun birdek qiziqarli sport — futbol zavqi atrofida birlashtirish tashabbusi g'oyat muhim va quvonarli, albatta.

Prezidentimizning bu tashabbusi bizga zo'r motivatsiya bergani holda yangi yutuqli marralar sari intilish hissinı bag'ishladi. O'z navbatida, xayolimizdan ba'zi mulo-hazalar ham o'tdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlar samarasida yangi jamiyat qurishga erishdik. Yurtimizda yangicha jamoaviy birdamlik muhiti paydo bo'la boshladi. Bu manzara ta'sirini futbol misolida ham ko'rish mumkin.

Yaqin-yaqingacha bizda jamoaviy sport turlari yaxshi rivojlanmay keldi. Bunga qator og'riqli sabablar bo'lgan. Aytaylik, tizimda korrupsiya avj olgan, tanish-bilishlik, xudbinlik hissi jo'sh urib turgan, seleksiya mexanizmi nomog'iriga ishlangan, jamoani shakllantirish uchun moddiy-texnik baza ta'minoti nochor ko'rinishda edi. Shu va shu kabi qator omillar jamoaviy sport turlari, xususan, futbolimiz rivojiga jiddiy to'siq bo'lib keldi.

Asta-sekin futbolimiz ichki va tashqi qiyofasi ham o'zgarib bormoqda. Yosh futbolchilarimiz jamoalarida birdamlik va hamjihatlik ruhi shakllanganı guvohi bo'lib turibmiz. Buni ular erishayotgan g'alabalarda ham ko'rishimiz mumkin.

Boisi, davlatimizning o'zi futbolni rivojlantirish va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish borasida qayg'urib kelmoqda.

O'tgan to'rt yilda Prezidentning futbolni rivojlantirishga doir ikkita qarori qabul qilindi. Birinchisi, 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, ikkinchisi, 2023-yil 7-aprelda "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlardir.

Har ikki qarorda ham mamlakatimizda futbolning ommaviylikini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, murabbiy va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o'rnatilgan standartlarga moslashtirish kabi maqsadlar ko'zda tutilgan.

Vazifalar hayotga tatbiq etilishi samarasida futbolimizning bugungi qiyofasi, ta'bir joiz bo'lsa, mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda. Birgina universitetimiz misolida oladigan bo'lsak, bugungi kunda moddiy-texnik bazamizda muammolar yo'q. Katta-kichik stadionlarimiz yetarli, eng muhimi, iqtidorli yosh futbolchilarimiz ko'pchilikni tashkil etadi.

Albatta, yoshlarni tarbiyalashda tajriba almashish, turli xalqaro musobaqalarda o'zaro bellashish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, biz turdosh xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan tig'iz hamkorlik o'rnatishga alohida e'tibor qaratamiz.

Masalan, avgust oyida talaba-futbolchilarimiz bilan birga Rossiyaning Yekaterinburg shahrida o'tkazilgan sport festivalida qatnashib keldik. Bu festivalda MDH va boshqa qit'alaridan kelgan 6000 mingga yaqin yosh 15 sport turi bo'yicha bellashdi. Universitetimiz mini futbol jamoasi mahoratini sinab ko'rди, tajriba ortirdi.

Bugungi kunda Braziliya, Venesuela, Eron, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston kabi o'nlab davlatlardagi universitetlar bilan hamkorlikni mustahkamlab kelmoqdamiz. Ularda tahsil olayotgan yosh futbolchilar bilan o'rtoqlik uchrashuvlari, turli darajadagi musobaqalar o'tkazishga qiziqish katta.

Mamlakatimizda futbolni, umuman, sportni keng ommalashtirish chora-tadbirlari ko'rilmog'da. Masalan, joriy o'quv yilidan yurtimiz OTMlari o'rtasida talabalar ligasi tashkil etildi. Har bir oliy ta'lim muassasasida futbol bo'yicha chempionatlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanmog'da.

Besh tashabbus doirasida ham turli musobaqalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu nafaqat talabalarni, balki maktab o'quvchilarini qamrab olgani e'tiborlidir.

Shu o'rinda XIX yozgi Osiyo o'yinlarida erishgan tarixiy yutuqlarimizni alohida ta'kidlamog'chiman. Unda talabalarimiz ham munosib ishtirok etdi. Jumladan, oltin, kumush va bronza medallar olgan yoshlarimiz bugun xalqimiz faxriga aylandi.

Bugun futbol bo'yicha turli yosh toifasidagi milliy terma jamoamiz ham katta yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Ular oldida jahon chempionatlari va boshqa nufuzli musobaqalarda zafar quchish mas'uliyati turibdi. Ayni kunlarda biz 2024-yil Parijda bo'lib o'tadigan o'ttiz uchinchi Olimpiya o'yinlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

"Hamdo'stlik kubogi"ga keladigan bo'lsak, bu kabi xalqaro turnirlar mamlakatimizda o'tkazilishining yana bir jihati bor. Iqtisodiy yuksalishga, oddiy aholi daromadini ko'payishga hissa qo'shadi. Chunki turizm rivojlanadi, savdo ko'payadi. Bunga bitta misol keltirish mumkin. Joriy yil sentabr oyida Xorazmda bo'lib o'tgan xalqaro etnosport festivali kunlari yuz.official telegram kanalida qiziq xabar o'qib qoldim. Ichonqal'da Xorazm bosh kiyimlari sotadigan tadbirkor festivalning bir kunida 10 million so'm sof foyda qilgani haqida aytilgan.

Umuman olganda, "Hamdo'stlik kubogi" futbol turniri davlatlar va xalqlarimiz o'rtasida hamjihatlik va do'stlik ruhini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

# O'ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI

## IJTIMOY DAVLAT TARAQQIYOTI



**Azamat MUXTOROV,**  
falsafa fanlari doktori,  
professor

**Boshlanishi 1-betda**

Iqtisodiy faol aholi 2022-yilda 15 million kishini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilda 12,7 millionga teng edi. Ish bilan band odamlar soni bu davrda 11,6 milliondan 13,5 million kishiga oshgan. Band aholining 23 foizi davlat muassasalarida, 77 foizi esa nodavlat sektorda ishlaydi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida ijobiy holat.

Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, jamiyat iqtisodiy sohada ancha faol tarzda harakat qilmoqda. Odamlar kelajakka umid bilan qaramoqda va iqtisodiy rivojlanish kuzatilmoqda. Bugun jamiyatda ishsizlikni qisqartirish va aholining bandlik masalalarini davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzini yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishga, ya'ni ular o'rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlarni bo'yicha farqlar keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik uchun aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

### Asosiy g'oyalar va hayotiy amal

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlashga doir masalalarni hal qiladi. Keng ma'noda nafaqat aholini bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko'p sonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar, jumladan, bandlik va u bilan bog'liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

Milliy davlatchiligidir tarixida ijtimoiy davlat tushunchasiga xos jihatlari yurtimizning eng ko'hna davrlarida ham asosiy g'oya va hayotiy amal bo'lganiga guvohimiz. Masalan, IX-X asrlarda yashagan ulug' bobomiz Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida bildirilgan fikrlar aynan "ijtimoiy davlat" tamoyilining mazmun-mohiyatiga to'la mos keladi. Ana shunday e'zgu g'oyalari Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz hayoti va asarlarining ham mazmunini tashkil etgan.

Yangilangan Konstitutsiyada ham jamiyatning iqtisodiy masalalariga katta e'tibor berilgan. Bosh qonunimizda "Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi muhit tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi", deyilgan.

Bu kabi huquqiy tamoyillarda jamiyatda qulay iqtisodiy muhit yaratish orqali insonlarning iqtisodiy sohada faolligini yanada oshirishga xizmat qilish nazarda tutilgan. Ya'ni inson qaysi kasbni, uy-joy uchun qaysi hududni tanlamasin, u doimo jamiyat deb ataladigan yagona tizimning bir qismi bo'lib qoladi. Ayni chog'da u "pul nima, narx qanday shakllanadi va nima uchun ko'tariladi yoki tushadi, mol-mulk, ish haqi, daromad qanday zudaga keladi" kabi savollarga doir bilimlarni bilmasdan turib, insonning zamonaviy dunyoda yashashi qiyin kechadi.

Haqiqatan, har bir oila va insonning iqtisodiy tushunchasi kengaygani sari u hayotini aql bilan boshqaradigan bo'lib boradi. Mana shu aql-zakovat esa ajdodlarning boy merosi va milliy qadriyatiga asoslangan kuchli ma'naviyat orqali singib, rivojlanish sari dadil qadam tashlashga zamin yaratadi.

Prezidentimizning "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir", degan fikri ham mamlakat taraqqiyoti uchun iqtisodiyot bilan ma'naviyatning roli naqadar ahamiyatli ekanini teran anglatadi. Shuning uchun yangi O'zbekistonda barpo etishga qaror qilingan ekanimiz, ikkita mustahkam ustunga tayanmoqdamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

### Zamonaviy ijtimoiy davlat va xorijiy tajriba

"Ijtimoiy davlat" tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o'rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratli darajasiga ko'tarishdan iborat, deb hisoblagan.

Hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekanini Konstitutsiya darajasida belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va kontinental modellari ham mavjud bo'lib, bunda davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari-ga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalash, si-fatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Mutaxassislar xorijiy davlatlar ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatni uchta — Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellarga ajratadi.

Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o'z bo'yniga oladi. Mazkur davlatlar fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari, bolalar va yoshlar, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Bu faoliyat davlat byujeti va ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlar-

davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlikni ta'minlash va daromadni oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Ishsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir.

Ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun joriy etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" va "mahalla-bay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda.

Joriy yil 11-sentabrda Prezidentimiz farmoni bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'tirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablari va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish, xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash uning asosiy g'oyalari hisoblanadi.

Mazkur 5 ta g'oya doirasida jami 100 ta maqsad amalga oshiriladi. Ularning aksar qismi ijtimoiy davlat tamoyillari bilan uzviy bog'liq. Bu xayriyalar "Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat" e'zgu g'oyasi-



ni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan, munitsipalitetlar, ya'ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu mamlakatlarda davlat, asosan, aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas'ul. Lekin davlat aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlarda davlat va xususiy ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan qoplanadi. Ya'ni ijtimoiy ta'minot byudjetdan ajratilgan mablag' hamda ish beruvchi va xodimlarning sug'urta badallaridan ta'minlanadi. Shunday qilib, Skandinaviya, kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari bo'yicha ijtimoiy, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag' ajratiladi, bir vaqtning o'zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o'rganiladi. Bajarlilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya tamoyiliga mos keladi. Bunda moddiy ne'matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud. Ushbu jarayon davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni vaqtda qayd etib, zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy davlatlilik Osiyo davlatlarida — Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda.

### Kafolatli ustuvor tizim

So'nggi yillarda mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlarning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va ularga



XALQARO FORUM

# Sentob

## JAHON TURIZM QISHLOQLARI RO'YXATIDA



**Boshlanishi 1-betda**

Turizm qishloqlarini tashkil etish yurtimiz sayyohlik sohasida yangi yo'nalishdir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasidagi islohotlar jarayonida bu borada salohiyati yuqori bo'lgan fuqarolar yig'inlariga turizm mahallasi, turizm qishlog'i va turizm ovu-qli maqomini berish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy qilindi.

Respublikamizda birinchi bo'lib Samarqand tumani Konigil qishlog'ida 52 ta hunarmandlik va dam olish maskani mavjud bo'lgan turizm qishlog'i tashkil etildi va 200 nafardan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta'minlandi.

2022-yilda Navoiy viloyatining Nurota tumanida Sentob hamda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Erto'shoy va Ovjazsoy qishloqlariga turizm qishlog'i maqomi berildi. Ushbu qishloqlarda 90 ta oilaviy mehmon uyi, 20 turdagi xizmatlar tashkil etilishi natijasida 400 ga yaqin qishloq aholisi bandligi ta'minlandi.

Toshkent viloyatining Angren shahridagi Lashkarak, Parkent tumanidagi Kumushkon, Shahrisabz tumanidagi G'ilon, Boysun tumanidagi Omonxonaga turizm qishlog'i maqomi berish choralarini ko'rilmoqda.

Ushbu nufuzli xalqaro tanlovda ishtirok etgan dunyoning turli hududlaridagi turizm qishloqlari qatorida Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Sentob qishlog'i ham sovrindorlar safidan joy oldi. Albatta, bunday nufuzli maqomga erishish o'z-o'zidan bo'lmadi. Buning uchun so'nggi yillarda qishloqda infratuzilmani yaxshilash va sayyohlarni jalb etish uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, bu maqomga erishish uchun qishloqning o'ziga xos tabiiy va tarixiy salohiyati ham muhim omil bo'ldi va Sentob UNWTOning turizm qishloqlari ro'yxatiga kiritildi.

Sentob tuman markazidan 120 kilometr, viloyat markazidan esa 180 kilometr uzoqlikda, Nurota tog' tizmalari orasida joylashgan qishloq bo'lib, bu hududda tabiiy ko'l, zardushtiylik diniga oid qadimiy ibodatxona, bir qator madaniy me'ros obyektlari, qadimiy qal'alar, toshlarga o'yib ishlangan petrogliflar bor. Shuningdek, qishloq aholining o'zbekona urf-odat, an'analari, turmush tarzi sayyohlarni jalb etadi. Tarix va zamonaviylik uyg'unlashgan bu manzili o'z ko'zi bilan ko'rish uchun qishloqqa dunyoning har burchagidan kelayotgan sayyohlar oqimi tinmaydi.

O'z navbatida, sayyohlarga ko'ngilli dam olishi, tarixiy va tabiat obidalari bilan yaqindan

tanishish uchun zamonaviy sharoitlar ham zarur. Shu maqsadda qishloqqa eltuvchi 5 kilometr ichki yo'l ta'mirlandi. Ko'chalarga tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Piyodalar ko'prigi, rasmga tushish hududi, sanitariya-gigiyena maskanlari, qishloqning ramziy kirish darvoza-si, axborot markazi, qadimiy qo'rg'on qoldiqlariga chiqish uchun maxsus tog' zonasi barpo etildi.

Natijada xorijiy sayyohlar oqimi to'rt barobar oshdi. Qishloqqa bir kunda o'rtacha 300, bir yilda 44 ming xorijlik sayyoh kelayпти. Mahalliy sayyohlar soni sakson mingdan oshdi. Sayyohlar oldinlari qishloqda 1 kun qolgan bo'lsa, infratuzilma yaxshilanishi, yaratilgan qulayliklar hisobiga bu muddat 3 kunga uzaydi.

Hozir qishloqda 3 ta hostel, 20 ta oilaviy mehmon uyi hamda 15 turdagi turizm xizmatlari tashkil etilgan. Xonadonlarda mavjud salohiyatlardan foydalangan holda 5 turdagi turizm xizmati (eshakda sayr, uy-muzey, gastrouyalar, gid, non yopish bo'yicha mahorat darsi) tashkil etilgan. Qishloqning turistik salohiyatini targ'ib qiluvchi buklet, flayer, videoroliklar tayyorlanmoqda.

— Qishlog'imiz ahli azaldan chorvachilik, bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan, — deydi "Sentob" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Murod Mirzayev. — Bugungi kunda turizm faoliyati ham qo'shildi va qisqa davrda bu soha aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish uchun katta imkoniyat ekanini namoyon bo'ldi. Hozir qishlog'imizdagi 2300 aholining aksariyati yangi barpo etilayotgan oilaviy mehmon uylari va turizm xizmatlari ko'rsatish tarmoqlarida ishlayapti. Xorijga ketgan migrantlarimiz ham yurtimizga qaytib, ishlash topan daromadiga oilaviy mehmon uyi yoki boshqa turdagi turizm xizmati ko'rsatish-



ni yo'lga qo'yib, o'zi va oila a'zolari bandligini ta'minlashga hissa qo'shmaypti. Qishlog'imizning sayyohlik salohiyati xalqaro miqyosda e'tirof etilishi bu yo'nalishdagi ishlarimiz rivojiga turki bo'ladi. Bu imkoniyatdan unumli foydalanib, yurtimizning turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga o'z ulushimizni qo'shamiz.

Xalqaro forumda, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan turizm qishloqlari vakillari ham ishtirok etdi. Ulardan ba'zilarining mazkur forum haqidagi taassurotlari bilan qiziqdik.

**Rafael ARISTA (Meksika):**  
— Biz Meksikaning Omitlan qishlog'idamiz. Omitlan ham turizm qishlog'i. Bu maqom bizga o'ziga xos tarixiy va tabiiy salohiyatimizni fuyayli berilgan. Shu bilan birga, sayyohlarni jalb qilish bo'yicha doimiy ish olib boramiz.

O'zbekistonga birinchi kelishim. Mamlakatning tarixiy obidalari, go'zal tabiiy hududlari haqida

eshitganman. Endi ularni o'z ko'zim bilan ko'rish, yurtingiz bo'yab sayohat qilish niyatidaman. Ayniqsa, tuyada sayr qilish niyatim bor. Xalqaro forumdan shuni bildimki, bugun O'zbekiston bo'yab bunday sayohatlarga chiqish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Yurtingizda turizm qishloqlari ham bor ekan. Imkon topib, ulargayam boramiz. Umuman, turizm sohasida tajriba almashish va o'zaro bordi-keldilarni rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

**Helder SILVA (Portugaliya):**  
— O'zbekiston turizm sohasi jadal rivojlanayotgan dunyodagi yetakchi davlatlar safidan joy oldi. Men sizlarni bu katta yutuq bilan tabriklayman. Albatta, bugungi globallashuv davrida bunday natijaga erishish oson bo'lmaydi. Buning uchun qat'iy harakat qilish kerak. Qolaversa, sayyohlarni jalb qilish uchun o'ziga xos infratuzilma talab etiladi. O'zbekistonda bu borada ko'p

ishlar bajarilgan. Samarqand bo'yab sayr qilinsa, qanchalik muhim ishlar qilingani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Eng muhimi, yurtingiz eshiklari dunyoga katta ochilib, sayyohlar uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Albatta, qisqa yillar ichida to'plangan bu tajriba e'tirofga loyiq. Qolaversa, bugun turizm sohasida O'zbekiston bilan hamkorlik qilish har bir investor va tadbirkor uchun iqtisodiy rivojlanishga imkon yaratadi. Shu bois, biz ham hamkorlik yo'llarini izlayapmiz.

Xalqaro forumda turizm qishloqlari bo'yicha ma'lumotlarni ham qiziqish bilan eshitdik. Sababi, bizning qishlog'imiz ham turizmga ixtisoslashgan. Faoliyatimiz haqida to'xtaladigan bo'lsam, 20 yil oldin faqat yoz faslida yoshlarni qabul qilardik. Bugungi kunga kelib, yilning to'rt faslida aholining barcha qatlamiga xizmat ko'rsatish imkoniga ega bo'ldik. Qishlog'imizda turizm rivojlanishi aholiga ham, davlatga ham yaxshigina foyda keltirayпти. Shuning uchun bunday yirik xalqaro tadbirlarda ishtirok etib, sayyohlik loyihalarimizni yanada kengaytirish yo'llarini izlayapmiz. Bu borada O'zbekistonda ham turizm qishloqlari tashkil etilgani biz uchun qiziqarli bo'ldi. Ularning ish tajribasini o'rganish va sayyohlar almashish bo'yicha hamkorlik qilish niyatidamiz.

**Bahor XIDIROVA, Dilshod ULUG'MURODOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari

# 7+2 TAMMOYILI YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI

**Qahramon QURONBOYEV,**  
siyosiy fanlar doktori,  
professor

Boshlanishi 1-betda

Ochiq tanlov asosida 42 ming 538 yosh orasidan har bir mahallaga jami 9440 nafar yoshlar yetakchisi tanlab olindi. Yetakchilar 5 marotaba onlayn va 2 marotaba kaskad usulida malakali mutaxassislar tomonidan o'qitildi, xizmat faoliyatiga doir 16 ta uslubiy qo'llanma bilan ta'minlandi.

Mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yilgani yosh avlod muammolarini bevosita quyi tizimda hal etish imkonini berdi hamda o'tgan qariyb ikki yil mobaynida sezilarli natijalarga erishildi.

## YOSHLAR YETAKCHISINING YETTITA USTUVOR VAZIFASI

Yoshlar yetakchisi zimmasiga yettita ustuvor vazifa yuklangan bo'lib, ularni bajarish bilim, shijoat va yetakchilik qobiliyatini talab etadi. Shu o'rinda mazkur yetti yo'nalishdagi vazifalarning amaldagi ijrosi, erishilgan natijalar tahliliga to'xtalaksak.

## BIRINCHI VAZIFA: davlatning g'amxo'rliqi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj yoshlar bilan ishlash

Joriy yil 11-aprel kuni davlatimiz rahbari raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular bilan olib borilayotgan ishlarni yangicha asosda, tizimli tashkil etish yuzasidan topshiriqlar berilgan edi.

Shulardan kelib chiqib, yoshlar balansini shakllantirildi. Unga ko'ra, yaxshi o'qiyotgan, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyatli, ijtimoiy faol 4,4 million yosh "yaxshi" toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagani, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh "orta" toifaga kiritildi. Davlatning g'amxo'rliqi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj 396 ming yigit-qiz "ahvoli og'ir" toifaga ajratib olindi.

Barcha mahallalarda mas'ullarning "og'ir" toifadagi yoshlar bilan ishlash, ularni ushbu toifadan chiqarishga qaratilgan faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

"Yoshlar balansini" asosida "og'ir" toifadagi 396 ming (4 foiz) yosh 6755 nafar vazir, vazir o'rinbosari, viloyat, tuman va shahar hokimi, sektor rahbari, oliy o'quv yurti rektori, Milliy gvardiya va harbiy qism komandirlariga nomma-nom biriktirilib, ular bilan manzilli ishlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Mazkur amaliyot juda muhim ahamiyat kasb etdi. Sababi, har bir yoshga, avvalo, e'tibor zarur. Ko'pgina yoshlar huquqbuzarlik va jinoyat ko'chasiga aynan jamiyat e'tiboridan chetda qolgan tufayli kirib qolgan. Shu bois, rahbarlarning ularga yo'l ko'rsatishi, har tomonlama qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiq.

O'tgan vaqt davomida 11 toifa bo'yicha ahvoli "og'ir" deb topilgan yoshlar bilan ishlash bo'yicha maxsus qo'llanmalar ishlab chiqilib, ishni to'g'ri tashkil etish uchun biriktirilgan rahbarlarga yetkazildi. Amaliy choralar natijasida bunday yoshlarning 146 ming nafari "yaxshi" toifaga o'tkazildi. Muammosi aniqlangan 179 ming yoshning 169 mingta (95 foiz) masalasi hal etildi.

Xususan, ishsiz 46 mingdan ortiq yigit-qizning bandligi ta'minlandi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 28

ming 382 yoshga moddiy yordam berildi, bemor va nogironligi bo'lgan 28 ming 920 yosh davolatildi, 65 ming 469 nafarining turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga yechim topildi. Bunday insonparvarlik amaliyoti ko'pgina rahbarlarni tinimsiz ishlashga, o'z halovatidan kechib bo'lsa ham yosh avlodga g'amxo'rlik qilishga undadi. Shu tariqa, loyiha yaxshi samara berdi. Xususan, yoshlar yetakchisi va biriktirilgan mas'ul rahbar kafilligi ostida xulq-atvori ijobiy tomonga o'zgartirildi, probatsiya 2924 nafar (21 foiz) hamda profilaktika nazoratida turuvchi 8321 nafar (38 foiz) yosh muddatidan oldin hisobdan chiqarildi. Ajrashish yoqasidagi 3455 (47 foiz) oila saqlab qolindi.

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan 208 ta tuman (shahar), 832 ta sektor, 9440 ta mahallada yoshlar bilan ishlash holati birma-bir o'rganildi. Tahlillarga ko'ra, Xorazm, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida ijobiy natijalar qayd etilgan bo'lsa, Jizzax va Navoiy viloyatlarida "og'ir" toifadagi 11 foiz yigit-qizning muammolari hal etilmagan.

Mavjud muammolar mas'ul rahbarlar ishtirokida tanqidiy muhokama etilib, hokimlarning yoshlar bo'yicha o'rinbosarlaridan 4 nafari, Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo'limlari rahbarlaridan 6 nafari, 24 nafar yoshlar yetakchisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Shuningdek, muammosi hal etilmagan, "og'ir" toifadagi 9667 nafar (5 foiz) yosh bilan joriy yilning 1-dekabriga qadar to'liq ishlash, ularga ko'maklashish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

2024-yilning yanvar oyida 9440 mahallada yangidan xatlov ishlari amalga oshiriladi va "og'ir" toifadagi yoshlar aniqlanib, ular bilan individual ishlar olib boriladi.

## IKKINCHI VAZIFA: yoshlar bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish

Bugungi kunda yangi ish o'rinlarini yaratish, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ishga muhtoj yoshlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish masalalari, ayniqsa, dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bularni hal etish maqsadida respublika komissiyasi tomonidan har bir mahallada "fuqarobay" tashkil qilingan Yoshlar bandligi dasturi amalga oshirilib, ijro holati kunlik tahlil qilib borilmoqda.

Shu yilning 2-oktyabr holatiga ko'ra, Yoshlar bandligi dasturi doirasida 273 ming 382 ishsiz yoshning 189 ming 614 nafari (69 foiz) bandligi ta'minlandi. Ularning 72,5 ming nafari doimiy ish o'rniga, 9,3 ming nafari esa tadbirkorlik loyihalari hisobiga yaratilgan yangi ish o'rinlariga joylashtirildi, 29,8 ming nafari kasb-hunarga o'qitildi, 17,6 ming nafari dehqonchilik uchun 7,2 ming gektar ekin maydoni, 21,3 ming nafariga tadbirkorlik uchun 412 milliard so'm kredit ajratildi, ijtimoiy ko'makka muhtoj 12,4 ming yoshga subsidiya asosida 108 milliard so'mlik mehnat qurollari berilib, hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashildi.

Shuningdek, respublika komissiyasi tomonidan maktab bitiruvchilari bandligini ta'minlash bo'yicha ham zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Joriy yilda 381 ming 591 o'quvchi maktabni tugatib, 155 ming 372 nafari oliy ta'limga qabul qilindi, 30 ming 824 nafari professional ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishni rejalashtirgan.



Mehnat bozoriga kirib kelgan 195 ming 395 maktab bitiruvchisi bandligini ta'minlash bo'yicha mahalla — sektor — tuman — viloyat kesimida manzilli tarmoq rejasi tasdiqlanib, 185 ming 159 nafarining (95 foiz) bandligi ta'minlandi.

Ularning 57 ming 105 nafari doimiy, 10 ming 366 nafari yangi yaratilgan ish o'rinlariga joylashtirildi, 36 ming 837 nafari kasb-hunarga o'qitildi, 3030 nafariga subsidiya asosida mehnat qurollari berildi, 5370 nafariga dehqonchilik uchun ekin maydoni, 3699 nafariga tadbirkorlik uchun kredit ajratildi, 43 ming 339 nafari hunarmandlikka jalb etildi, 25 ming 413 nafari xususiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi.

Respublika komissiyasi yig'ilishida mas'ul rahbarlar ishtirokida bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar muhokama qilinib, yil yakuniga qadar ishsiz 83 ming 768 yosh va 10 ming 236 maktab bitiruvchisi bandligini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

## Ushbu jamg'arma orqali yoshlarga qator amaliy ko'mak ko'rsatilib, hududlar kesimida nazorati va doimiy monitoringi yuritilmoqda.

Bugungi kunda "Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqardi. Natijada yoshlarning 687 mingta murojaatidan 575 mingtasi (84 foiz) mahallaning o'zida hal etildi. Birgina joriy yilda yoshlar yetakchilari tavsiyasi bilan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 265 ming yigit-qizga 378 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi.

Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 42 ming talabaga ta'limni davom ettirishi uchun 118 milliard so'mlik kontrakt pullari to'landi. 15 ming ishsiz yoshga 49 milliard so'mlik asbob-uskuna va mehnat qurollari ajratilib, mahallaning o'zida bandligi ta'minlandi. Band bo'lmagan 16 ming yosh esa tadbirkorlik, zamonaviy kasblar va haydovchilikka o'qitilib, ularning 25 milliard so'mlik o'quv kursi xarajatlari to'lab berildi. Uyushmagan yoshlarning 6,7 ming nafari safarbarlik chagiruvi rezerviga jalb qilinib, 34,5 milliard so'mlik harbiy xizmat badali to'liq qoplandi. Nogiron va bemor 27,7 ming yoshga tibbiy xizmat ko'rsatilib, davolanish xarajatlari 32 milliard so'm sarflandi.

## TO'RTINCHI VAZIFA: yoshlarning bo'sh vaqtini mazzunli tashkil etish, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash

Bugungi kunda yoshlarning bo'sh vaqtini mazzunli tashkil etish, ularni madaniyat, san'at va sportga qaratib jalb qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida joriy etilgan 5 bosqichli (mahalla — sektor — tuman — hudud — respublika) "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida yoshlar madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik, IT yo'nalishlari bo'yicha 14 dan ortiq tanlov va musobaqada ishtirok etib kelmoqda.

Bu esa yoshlarni ommaviy sportga jalb etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va boshqa ma'daniy-marifiy tadbirlarni samarali tashkilatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yildan bugungi kungacha "Besh tashabbus olimpiadasi"da 11,4 million yigit-qiz ishtirok etdi. Joriy yilda ilk mavsumning birinchi bosqichi doirasida mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan tanlov va ommaviy sport musobaqalarida 9440 mahalladan jami 4,2 milliondan ortiq (1 million 559 ming nafari qiz) yosh qatnashdi. Jumladan, sektor bosqichida (832 ta sektor) 811 ming, tuman (shahar) bosqichida (208 ta tuman (shahar) 212 ming, hududiy bosqichida 24 ming, respublika bosqichida 7434 yigit-qizning ishtiroki ta'minlandi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" birinchi mavsumi doirasida maktab o'qituvchilari o'rtasida "Sog'lom tunda — sifatli ta'lim" shiori ostida Kasaba uyushmasi kubogi uchun mini futbol, voleybol, shaxmat, shaxsha va stol tennis bo'yicha uch bosqichli (maktablararo, tuman (shahar)lararo va hududiy bosqich) musobaqalar o'tkazildi. Ularda 10 ming 104 umumta'lim maktabidan jami 211 ming o'qituvchi (110 ming nafari xotin-qiz) ishtirok etdi.

Birinchi mavsum respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 816 yoshga 3,5 milliard so'mlik mukofotlar berildi.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 288 yigit-qiz yashovchi mahallalarda 1 tadan sport maydonchasi qurib berilishi belgilandi. Shu o'rinda 2022-yilning birinchi mavsumida g'olib bo'lgan yoshlar mahallalarida



279 ta, ikkinchi mavsumda 344 ta sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirilganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning navbatdagi ikkinchi mavsumini joriy yilning sentabr-dekabr oylarida o'tkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar mazkur tadbir doirasida o'tkaziladigan 14 ta tanlov va musobaqada ishtirok etish uchun 5tashabbus.uz sayti orqali jami 7 milliondan ortiq yigit-qiz ro'yxatdan o'tgan.

Mazkur o'ziga xos "kichik olimpiada" doirasida "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" tanlovi, kushash, voleybol, gimnastrada sport musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yini va "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazildi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumida ilk bor umumta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida to'rt bosqichda (maktab, tuman (shahar), hududiy va respublika) musobaqa va tanlovlar bo'lib o'tadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasidagi "Besh tashabbus olimpiadasi" final bosqichini joriy yilning dekabr oyida bo'lib o'tadigan "Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazish rejalashtirilmoqda.

30-iyun mamlakatimizda Yoshlar kuni sifatida nishonlanadi. Yoshlarga oid izchil davlat siyosati sohasidagi keng ko'lamli ishlohotlar va xayrli ishlarini yoshlar orasida targ'ib qilish maqsadida mazkur sana munosabati bilan iyun oyi yurtimizda "Yoshlar oyligi" deb e'lon qilindi. O'ylik doirasida barcha hududlarda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida festivallar va ma'naviy-marifiy tadbirlar o'tkazilishi ham yaxshi an'anaga aylanmoqda.

Jumladan, joriy yilda bu tadbirlar "Harbiy-vatanparvarlik", "Intellektual o'yinlar", "Sport-salomatlilik", "Madaniyat, san'at va turizm" haftaliklariga qo'shilgan holda tashkil etildi.

"Yoshlar oyligi" doirasida barcha mahalla, tuman va shaharlarda o'tkazilgan 23 mingdan ortiq turli loyiha, tanlov, musobaqa va gala-konsertda jami 5 milliondan ortiq yigit-qiz ishtirok etdi.

Ma'naviyat-marifat targ'ibot guruhlari tomonidan mahallalarda "Ma'rifat soati", "Milliy qadriyatlar", "Mehr-muruvvat va saxovat", "Siz sevgan qahramon", "Ma'rifat oqshomlari" loyihalari orqali 334 mingdan ortiq yigit-qiz qamrab olindi.

Yoshlar kuni munosabati bilan respublikamizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan 38 nafariga "Kelajak bunyodkori" medali, 28 nafariga "Mard o'g'lon" davlat mukofotlari topshirildi.

## BESHINCHI VAZIFA: huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan tizimli ishlash

Yoshlar yetakchisining muhim vazifalaridan biri huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan tizimli ishlashdir. Bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Achinarlisi, jinoyat sodir etgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgan bo'lib, jinoyat qilishga undaydigan sabablar, holatlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini yanada takomillashtirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Joriy yil 28-iyul kuni hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish holati hamda bu boradagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan topshiriqlardan kelib chiqib, mahallalarda yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini jilovlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchi, respublika komissiyasining shoshilinch yig'ilishi o'tkazilib, Ichki ishlar vazirligida yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha markaziy shtab, shuningdek, har bitta tuman (shahar) IIBda hududiy shtablar faoliyati yo'lga qo'yildi.





# INNOVATSION YONDASHUV



Bugungi kunga qadar 10 ming 85 ta umumta'lim maktabida (241 ming a'zo), 194 ta Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida (17,3 ming a'zo), 560 ta professional ta'lim muassasasida (6,7 ming a'zo), 65 ta akademik litseyda (1,2 ming a'zo), 159 ta oliy ta'lim muassasasida (9,5 ming a'zo), 5600 ta mahallada (67 ming a'zo) "Zakovat" intellektual klubi to'garaklari va ularning koordinatori faoliyati yo'lga qo'yildi.

2017-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" respublika tanlovi orqali esa bugungi kunga qadar 4,3 milliondan ortiq yosh qamrab olindi. Yoshlarning ijodiy iqtidorini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil yakuniga qadar barcha hududlarda bosqichma-bosqich "Kreativ park"lar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

"Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" jam'armasi tashkil etilib, Tiklanish va taraqqiyot jam'armasi mablag'lari hisobidan 100 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratiladi.

Iqtidorli yoshlarning yagona elektron bazasini yuritish, jam'arma tanlovlarida ishtirok etadigan talabgorlarning innovatsion g'oyalari va ilmiy-texnik ishlanmalarini saralash, baholash va natijalarini e'lon qilib borishga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" elektron platformasi yaratiladi.

Toshkent shahridagi "Yoshlar ijod saroyi" binosida "Kreativ park"ning birinchi eksperimental maydoni joriy yilning noyabr oyida faoliyatini boshlaydi.

## YETTINCHI VAZIFA: xorijdagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlash

Tashqi migratsiyadagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ular bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha alohida elektron platforma yaratilmoqda.

Ushbu platforma orqali xorijiy mamlakatlardagi barcha migrant yoshlar o'zlarini o'ylantirayotgan muammolar yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

E'tiborsiz, murojaat etuvchilar ko'targan masalalar ijrosi yuzasidan doimiy monitoring yuritiladi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida "Yo'l xarita"si ishlab chiqildi.

Bu esa xorijiy davlatlardagi vatandosh yoshlarimizning murojaatlari o'z vaqtida o'rganilib, muammolari hal bo'lishiga zamin yaratadi.

Bu borada O'zbekiston yoshlari umumijon asotsiatsiyasi tomonidan qator ishlari qilinmoqda.

Bugungi kunda 13 davlatda asotsiatsiyaning 14 vakili va 128 koordinatori faoliyat yuritmoqda. Ular

Muloqotlar davomida 2 mingga murojaat "Yo'l xarita"si"ga kiritilib, ijrosi nazoratga olindi. 5 ming nafarga yaqin yurtdoshimizning muammosi joyida hal etildi.

Vatandoshlar bilan muloqotda ularning aksariyati ishlashga ruxsatnomasiz faoliyat yuritayotgani, mehnat qonunchiligi bo'yicha yetarli tushunchaga ega emasligi aniqlandi. Shu bois, ular o'rtasida huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Mutaxassislar tomonidan 6 mingga yaqin vatandoshimiz bilan diniy-ma'rifiy mavzularda suhbatlar o'tkazildi.

Fuqarolar tomonidan ko'tarilgan masalalar yuzasidan shu joyning o'zida mahalliy hokimliklar bilan bog'lanilib, hal etish choralari ko'ndi. Natijada 82 fuqarozimning O'zbekistonga qaytishiga ko'maklashildi, 24 talaba-yoshning o'qish xarajatlari qoplab berildi.

## IKKI BURCH: KITOBXONLIK VA XORIJIY TILLARNI BILISH

Yuqorida mahalladagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ayni paytda ularning ikkita muhim burchi borligini ham alohida ta'kidlash lozim. Bulardan biri — yoshlar yetakchilarining kitobxon bo'lishi.

O'rganishlar natijaciga ko'ra, muntazam kitob o'qiydigan shaxslarda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intilish hamda boshqalarni ham o'zi kabi tashabbuskor bo'lishga undashga moyillik yuqori bo'ladi. Mutolaa bilan band yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari kamayishi tendensiyasi ham kuzatilgan.

2020-yil 14-dekabrda Vazirlik Mahkamasining "2020-2025-yillarda Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, kitobxonlik madaniyatini keng yo'yish va yoshlarning kitobga muhabbatini oshirishda yoshlar yetakchilari ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Shu bilan kelib chiqib, yoshlar yetakchilari zimmasidagi burchlardan biri har oyda turli yo'nalishda kamida bitta kitob o'qish va o'z kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat.

Shaxs tasavvurini kengaytirish, ijodiy va noodiy fikrlashni rivojlantirishda, madaniy va axloqiy saviyasini yuksaltirishda badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarning o'zi beqiyos. Aniqrog'i, mutolaa yoshlar yetakchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantiradi, og'zaki va yozma nutqini o'stirib, fikrlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash malakalari shakllanishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, ularda yoshlarga namuna bo'ladigan kitobxonlik madaniyati shakllanadi. Yetakchining kitobxon va notiq bo'lishi, yoshlar orasida fikrini erkin bayon etishi mahalla yoshlarida ishonchni, motivatsiyani kuchaytirib, turli sohalarda yuqori natijalarga erishishda muhim turki bo'ladi.

Yoshlar yetakchisining kitob mutolaa qilish orqali mahalladagi yigit-qizlarni ergashtirish jarayoni "Shaxsiy o'mak va namuna — eng yaxshi targ'ibot" shiori ostida o'tishi samaradorlik ko'rsatkichini yanada oshiradi.

Yoshlar yetakchisi zimmasidagi yana bir burch — xorijiy tillarni bilish.

Xorijiy tillarni o'rganish yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni o'stirishda yordam beruvchi eng yaxshi vositalardan biri. Ayrim yetakchilar qaror qabul qilish, mustaqil tashabbuslarga qadam qo'yishga qiyinladi, tanqidiy va tahliliy fikrlashda to'siqlar mavjud.

Bunday holatda ularning xorijiy tillarni o'rganishi yuqorida ta'kidlangan muammolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda chet tili o'rganish zamonaviy inson uchun hayot talabiga aylanib bormoqda. Til o'rganish istagidagi yoshlar soni ham yil sayin ko'paymoqda. Chunki til o'rganish dunyoqarashni rivojlantiradigan, mantiqiy fikrlashni, fikrni qisqa va aniq ifoda etish qobiliyatini yaxshilashga imkon beradigan ijodiy faoliyatdir.

Yoshlar yetakchisining xorijiy tillarni puxta o'rganishi esa joriy va kelgusi ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, kasbiy rivojlanishi va o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Joriy yil 26-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish masalalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mahallani joylardagi muammolari chinakam hal qiladigan institutga aylantirish zarurligi alohida ta'kidlandi.

O'ylaymizki, bunday institutni shakllantirishda mahalladagi yoshlar yetakchilari muhim funksional vazifani bajaradi. Chunki ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlari kelajagimiz egalari bo'lish yoshlariga to'g'ridan-to'g'ri daxldor bo'lib, bu mamlakatimizning ertangi kunini barpo etish bilan teng bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy jarayondir.

**Ikkinchidan,** jinoyatchilik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan Chirchiq shahrida 44 mahalla bira-bir o'rganilib, birlamchi tajriba yaratildi. Shundan kelib chiqib, barcha hududlardagi yoshlar masalasiga mas'ul rahbarlar uchun Quy Chirchiq tumanida amaliy seminar o'tkazildi. O'quv seminare davomida Zangiota tumanidagi 24-koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkum yoshlar bilan mas'ul rahbarlarning yuzma-yuz muloqotlari tashkil etildi. Koloniyada jazo muddatini o'tayotgan voyaga yetmaganlardan 108 nafarining jinoyatlari kelib chiqish negizlari tahlil qilindi.

**Uchinchidan,** Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda maxsus o'quv modulli ishlab chiqilib, Ichki ishlar vazirligi akademiyasida 180 trener tayyorlandi. Ular tomonidan "mahalla beshligi"ning 47 ming 634 vakili kaskad usulida o'qitilmoqda.

Shuningdek, mahallada huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha mas'ullar bilan hamkorlikda ishlashga doir metodik qo'llanma ishlab chiqilib, 10 ming nusxada chop etildi hamda mahallalarga yetkazildi.

**To'rtinchidan,** yoshlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha "Qo'qon shahri tajribasi" asosida har bir mahalla kesimida "yoshlar jinoyatchiligi balansi" shakllantirilib, "harakatlari rejasini" ishlab chiqildi.

Bu boradagi ishlar mahallalarda 5 ta yo'nalishda tashkil etilayotgan bo'lib, har bir yo'nalish o'zida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadbirlar majmuini qamrab olgan. Xususan:

- jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan yoshlar ro'yxati shakllantirilib, (shu jumladan, "og'ir" toifadagi yoshlar) ular bilan individual ishlash;
- maishiy muammosi mavjud ota-onalar (oilaviy ajralishdagi va notinch oila farzandlarining ota-onalari) bilan alohida ishlash;
- ta'lim muassasalari (maktab, kollej, texnikum, oliy o'quv yurti)dagi deviant xulq-atvorli yoshlar bilan individual ishlash;
- har bir mahallada "ko'cha sardorlari" tizimi orqali profilaktik tadbirlar, vatanparvarlik va sport tadbirlariga uyushmagan yoshlar vakillarini jalb qilish;
- mahallalar hududida jinoyatchilik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan jinoyatchilik obyektlari (tashlandiq bino-inshootlar, tungi klub va boshqa) bo'yicha ishlarni alohida tashkil etish.

Jinoyatga moyil yoshlar bilan ishlashni tizimli tashkil etishda "Toshkent viloyati namunasini" asosida viloyatdagi tarbiyasi og'ir 32 ming 868 yosh bilan "fuqarobay" shug'ullanishni raqamlashtirish choralari ko'rilmoqda.

O'tgan 8 oy davomida yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan 23 ming 550 jinoyat 5828 ta mahallada o'tkazilgan tanqidiy yig'ilishlarda 23 ming 379 marotaba keng jamoatchilik vakillari bilan muhokama qilindi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik ko'rsatkichlari joriy yilning sentabr oyida avgust oyidagiga nisbatan 18,6 foiz kamayishiga erishildi.

**OLTINCHI VAZIFA: iste'dodli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishiga ko'maklashish**

Bugungi globallashuv davri iqtidorli yoshlar qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishni va buning uchun yangicha usul hamda vositalardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shu bois, iqtidorli yigit-qizlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yanada jadallashtirish, ularni ilmiy-texnik faoliyatga keng jalb qilish, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda hayotda o'z o'rnini topishi-

ga ko'maklashishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish choralari ko'rilmoqda.

Xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishni oshirish maqsadida "Ibrat farzandlari" loyihasi amalga oshirilib, bugungi kunga qadar 13 ta xorijiy til bo'yicha 1400 dan ortiq videodars yaratildi.

Loyihaning "YouTube" platformasidagi obunachilari soni 375 mingga yetdi (jami ko'rilgan videodarslar soni 15 million 600 ming marotaba). "Ibrat Academy" mobil ilovasi esa qisqa muddatda 267 ming foydalanuvchi tomonidan yuklab olindi, ularning 95 foizi faol foydalanuvchilardir.

Shuningdek, mahallada "UzChess" loyihasi doirasida shaxmatni bepul, tez va oson o'rgatishga qaratilgan 150 dan ortiq videodarslik yaratildi.

Navoiy viloyatining Qiziltapa tumanidagi To'dako'l suv ombori hududida 7,2 gektar maydonda Xalqaro shaxmat maktabi barpo etildi. Bu maktabda yil davomida 700 shaxmatchi o'qitiladi va 2,5 ming yosh turli intellektual tadbirlar orqali qamrab olindi.

Xorijda muvaffaqiyatga erishgan yosh vatandoshlar to'g'risida "O'zbekistonlik" loyihasi doirasida AQSH, Germaniya, Fransiya va Niderlandiyada suratga olingan 3 ta film keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jonlantirish maqsadida keng ko'lami loyiha va rejalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, elektron audiokitoblar



yaratish va videomahsulotlar ishlab chiqish orqali yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish maqsadida "Mutolaa" loyihasi yo'lga qo'yilmoqda. Loyiha doirasida 2023-yil yakuniga qadar 100 dan ortiq elektron va audiokitob ishlab chiqiladi. Jarayonga dublyaj ustalari, yozuvchi va shoirlar hamda makalali mutaxassislar jalb etilmoqda.

2025-yilga qadar loyiha asosida 1 milliondan ortiq kitobxon yoshni kasf etish, faol kitobxonlarni doimiy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

O'tgan yili "Jadidlar" rukni ostida 8 ta kitobdan iborat to'plam 23 ming nusxada chop etilib, kutubxonalarda va ta'lim muassasalariga yetkazib berilgan edi. Bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish, Markaziy Osiyodagi Birinchi Rennessans davri qomusiy olimlari

ning ilmiy va ma'naviy merosini yoshlar orasida keng targ'ib etish maqsadida joriy yilda Xorazmiy, Farg'oni, Imom Buxoriy, Imom Moturiy, Abu Nasr Forobiy, Beruniy va ibn Sino haqida "Uyg'onish" rukni ostida 7 ta kitobdan iborat to'plam 20 ming nusxada chop etildi.

Kitoblarni barcha ta'lim muassasalar, 205 ta axborot-kutubxonaga markazi, vazirlik, idora va tashkilotlar kutubxonalariga yetkazib berish choralari ko'rilmoqda.

Ommaviy harakatga aylanib borayotgan "Zakovat" intellektual o'yini hamda "Yosh kitobxon" tanlovi millionlab yoshlarni o'z atrofiga birlashtirmoqda.

